

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№4

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
APREL




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE


Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ





Elektron nashr,
376 sahifa, aprel, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik
Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor. Buxoro davlat texnika universiteti

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagi 360/5-son
qarori bilan "Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati"ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha "Muhandislik va
iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga
kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Роль искусственного интеллекта в управлении финансовым потенциалом предприятий.....	10
Юсупов Файзулла Якубович	
Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali takomillashtirish: “Navoiy” EIZ misolida.....	20
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Davlat xaridlari jarayonini boshqarish va nazorat qilishning muhim jihatlari.....	26
Xodjamqulov Shahboz Sherali o‘g‘li	
Oliy ta‘lim tizimini baholash: milliy model va global standartlar.....	31
Hakimov Hakimjon Abdullo o‘g‘li, Hakimova Gulnoza Abdulloyevna	
Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishda xorij tajribasi.....	37
Qodirov Iskandar Alisher o‘g‘li	
Механизмы адаптации рынка труда к новой модели экономического роста: теория, практика и цифровые решения.....	41
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
Xorazm viloyati eksport strategiyasini takomillashtirishning iqtisodiy va ijtimoiy ta’sirlari.....	50
Fozil Xolmurotov	
Suv resurslarini tejashda aqli sug‘orish tizimlarining ahamiyati.....	62
Abdullayev.A., Karimov Anvarjon Muqumjonovich	
To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati raqobatbardoshligini oshirishning marketing vositalari.....	68
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
The current state and development trends of innovative activity in agriculture.....	72
Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna	
Методология оценки инновационной деятельности.....	78
Алиева Эльнара Аметовна	
Yashil iqtisodiy o‘shishda raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlikning integratsiyalashuvi.....	86
Xodjamov Asliddin O‘ktam o‘g‘li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o‘g‘li	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiya qilish yo‘llari tahlili.....	92
Abdurazzoqov Abdualim Abdujabbor o‘g‘li	
Направления повышения эффективности средств, направляемых на обеспечение занятости населения и сокращение бедности.....	97
Маликов Аuezхан Жорабекович	
O‘zbekiston uy xo‘jaliklarining farovonlik koeffitsiyenti: blackorby va donaldson yondashuvi asosida tahlili.....	106
Boltayeva Dilafza Jumaqulovna	
O‘zbekistonda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘zgarish dinamikasi.....	114
Qo‘shbaqov Aybek Shovqiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash, davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirish va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	123
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich	
Yangi o‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari.....	132
Tojiyev Javlonbek Rustamovich	



Mulkchilik shakliga ko'ra tijorat banklarida depozitlarining amaldagi holati tahlili	138
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Bandlikni ta'minlashda moliyaviy mexanizmlarning o'rni va ahamiyati	151
Karimjonov Muhammadrasul To'liqinjon o'g'li	
Mustaqil direktorlar ulushi, nomoliyaviy axborotlarning oshkor qilinishi va dividend siyosatining kapital qiymatga kompleks ta'siri.....	159
Urinov Bobur Nasilloevich	
Turizm orqali ish o'rinlarini yaratish va bandlik muammosini kamaytirish imkoniyatlari	167
Kaxramanova Sevda Shamsiddin qizi	
Kam quvvatli gidroelektr stansiya uchun mos bo'lgan inverter, reduktor, akkumulyator va generatorni tanlash.....	173
Xamrayev Og'abek Oybek o'g'li, Davletov I.Y.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarini ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari.....	182
Ibragimova Gulnoza Sayidmuradovna	
Terminologiya va ilmiy terminologiya xususida.....	188
Ruziyeva Gulnoz Temirqulovna	
O'zbekiston Respublikasida innovatsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish yo'llari.....	192
Ramazonov Javohir Bekzod o'g'li	
Bazalt chiqindi toshqol asosidagi kam suv talabchan sementlarning samaradorligini oshirish	197
Babayev Sultonbek Sunnat o'g'li	
Qashqadaryo qayta tiklanuvchi energiya manbalarining samaradorligini turli yondashuv asosida baholash.....	203
Omonova Sitara Zafar qizi, Utayev Sobir Achilivich	
Tilshunoslikning mexanika muhandisligi terminlari xususida.....	208
Mansurova Nafisa Qamariddinovna	
"Chizma geometriya va perspektiva" fanining arxitektura bilimlari tizimidagi roli.....	213
Yusubjonov Jonibek Farxod o'g'li	
Geodezik plan olishning avtomatlashgan usullari.....	219
Mamajonova Nodira Alisher qizi	
Zamonaviy arxitektura interyer dizaynida milliy grixva islomiy naqshlar uyg'unligi	225
Qo'chqarov Baxodir O'lmasovich	
Qurilishda mehnat unumdorligini oshirish va uni prognozlashning nazariy asoslari	230
Abduvaliyev Bekzod Muhiddin o'g'li	
Qishloq aholi hududlaridagi zamonaviy innovatsion o'zgarishlarining o'rta ta'lim maktablari tuzilishidagi ta'siri	235
Abdurahmonov Olimjon Obboqul o'g'li	
Seysmik hududlarda qurilish konstruksiyalarini to'g'ri tanlash	241
Egamberdiyeva Shaxnoza Abdurashidovna	
Arixiy yodgorliklarning me'moriy-rejaviy, konstruktiv va badiiy bezak yechimlari.....	251
Sotvoldiyev Azamatjon Akramjon o'g'li	
Xitoy va O'zbekiston tajribasi asosida soliq to'lovchilar reytingi tizimi orqali fiskal intizomni mustahkamlash.....	255
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
Turizmga investitsiyalar iqtisodiyotimizga ijobiy ta'siri etuvchi omillari sifatida.....	268
Ayubov Ilyos Iloxovich, Tursunov Qosimbek Nodirovich	



Problems of determining the informativeness of input and output parameters in object management	275
Turapov Ulugbek Urazkulovich	
Tijorat banklari faoliyatiga foiz riskining ta'siri: ilmiy-nazariy asoslar va amaliyot tahlili	280
Turdiyev Abdulhakim Qulbazarovich	
Zamonaviy moy filtrlarining dvigatel ishlash resursini oshirishiga ta'siri.....	290
Mirzakarimov Rustambek Xusanboy o'g'li	
Qayta tiklanadigan energiya manbalari: zamonaviy global tendensiyalar va O'zbekiston uchun perspektivlar	295
Bozarov Elyor Boboqulovich, Rustamova Sarvinoz Azizbek qizi	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyaning ahamiyati.....	300
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
Strengthening and enhancing the export potential of industrial enterprises for sustainable growth.....	305
Researcher of Tashkent State University of Economics	
Davlat tashkilotlarining bitiruvchilarga bo'lgan ehtiyoji va talablari.....	310
Daminova Barno Esanovna, Bozorova Irina Jumanazarovna, Pardayeva Muqaddas Zafar qizi	
Erkin iqtisodiy hududlar soliq rejimlarini takomillashtirishning xorij tajribasi.....	320
Boltayev Jo'rabek Yusofovich	
Tabiiy va sun'iy tolalar sanoatini diversifikatsiya qilish orqali investitsion jozibadorlikni oshirish.....	325
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B segmentida omnichannel marketing strategiyalarining qo'llanishi	331
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
O'zbekistonda kichik biznes faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari	338
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	
Task mapping and job scheduling implications of fdi inflows and governance quality metrics	343
Nilufar Zikirullaeva Dilmurod qizi	
Yangi O'zbekiston savdo-iqtisodiy munosabatlari rivojlanishida xizmatlar eksportining ahamiyati	350
Eshanqulov Baxodir Abduraxmon o'g'li	
Budjet daromadlarini shakllantirishda yirik soliq to'lovchilarning tutgan o'rni	357
Tohirov Shuhrat Niyoz o'g'li	
Davlat maqsadli jamg'armalari resurslarini boshqarish va samarali foydalanish yo'nalishlari.....	361
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik subyektlari amaliy holati, sohani rivojlantirish asoslari	365
Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g'li	
Korxonalarda moliyaviy instrumentlarning hisobi va audit masalalari	371
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	



KORXONALARDA MOLIYAVIY INSTRUMENTLARNING HISOBI VA AUDIT MASALALARI



Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich

Andijon davlat texnika instituti
“Buxgalteriya hisobi va menejment” kafedrası
v.b.professor, i.f.d.

Annotatsiya: Ushbu maqola xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga moslashtirish, qimmatli qog'ozlarni hisobini tashkiliy masalalarini hal qilish va xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini asosida auditorlik tekshiruvlarni tashkil etish masalalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, xorijiy mezon, qimmatli qog'ozlar, auditorlik faoliyatini milliy standarti, investitsiya, depozit sertifikat, korporativ obligatsiyalar, emissiyaviy qimmatli qog'ozlar, varrant, opsiya, hosilaviy qimmatli qog'ozlar, operatsion audit, muvofiqlik auditi.

Abstract: The article deals with the issues of harmonization with international financial reporting standards, the solution of organizational issues of accounting for securities and the organization of audits based on international financial reporting standards.

Keywords: international financial reporting standards, foreign standard, securities, national auditing standards, investments, certificate of deposit, corporate bonds, equity securities, warrant, option, derivative securities, operational audit, complex audit.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы согласования со стандартами международной финансовой отчетности, решение организаторских вопросов учета ценных бумаг и организация аудиторских проверок на основе стандартов международной финансовой отчетности.

Ключевые слова: международные стандарты финансовой отчетности, иностранный стандарт, ценные бумаги, национальные стандарты аудита, инвестиции, депозитный сертификат, корпоративные облигации, эмиссионные ценные бумаги, варрант, опцион, производные ценные бумаги, операционный аудит, комплекс аудит.

KIRISH

Jahonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlantirish yirik hajmda investitsiyalarni talab qilishi, mazkur jarayonda qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanishi jamg'armalarni investitsiyalarga transformatsiya qiladi va iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiya kiritishga imkoniyat yaratadi. Qimmatli qog'ozlarni birlamchi va qayta sotish bo'yicha barcha operatsiyalar qimmatli qog'ozlar savdo tizimlarida fond birjasi, elektron savdo va uyushmagan savdo tizimlari orqali amalga oshiriladi. “Jahondagi eng yirik 10 ta birja jahon fond bozori kapitallashuvining qariyb 77 foizini yoki

65,6 trillion AQSh dollari tashkil qiladi. Ular bo'yicha birja savdolarining kunlik hajmi 5,0 trillion AQSh dollardan oshadi, bu jahon aylanmasining 40,0 foizini tashkil etadi, 22,0 foizi faqat NYSE (New York Stock Exchange) va NASDAQ (National Association of Securities and Dealers Automated Quotations) birjalari to'g'ri keladi". [1] Dunyo amaliyotida moliya bozorini boshqarish jarayonlarida moliyalashtirish darajasining pasayganligi, ularning oldini olish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va korporativ boshqaruv jarayonida xalqaro talablarga mos ravishda buxgalteriya hisobi va auditini tashkil etishning turli metodologik yondashuvlar asosida yuritilishi kuzatilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida keyingi yillarda moliyaviy instrumentlardan keng foydalanish maqsadida xo'jalik yurituvchi subyektlar qimmatli qog'ozlarini dunyodagi mashhur fond birjalari talablari asosida ularga joylashtirish natijasida biznesni rivojlanishi va uni samarali boshqarish muammosini hal etish, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llash bo'yicha alohida e'tibor qaratish belgilangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida" [2] alohida hukumatiz rahbari tomonidan qarorlari bilan ham belgilab qo'yilgan. Shuningdek, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida "moliya bozoriga xorijiy kapital oqimlarini asosan o'rta va uzoq muddatga jalb qilish; davlat qimmatli qog'ozlarini norezidentlar tomonidan xarid qilishga ruxsat berish; korporativ qimmatli qog'ozlar bozorida likvidlikni oshirish" [3] kabi vazifalarning belgilanganligi moliyaviy instrumentlar hisobi va auditining nazariy hamda uslubiy jihatlarini takomillashtirish muhimligini ko'rsatib beradi.

O'zbekistonda moliyaviy instrumentlarni buxgalteriya hisobi va audit masalasi dolzarb mavzu bo'lib, iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida muhim ahamiyatga egadir. Shu nuqtai nazardan ushbu masala bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar bajarilgan bo'lib, xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatida moliyaviy instrumentlarni hisobga olish va uning auditini tashkil etish masalalari va uning ayrim masalalari bo'yicha ilmiy ishlar bajarilganligini ko'rishimiz mumkin. Shu jumladan Isroilov B.I. tomonidan [4] aksiyadorlik jamiyatlarida hisob siyosatining konseptual asoslari, ularning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga salbiy ta'sir qiladigan debitorlik qarzlari va ularni kamaytirish, aksiyalarning fond birjalari va depozitariylar hisobining xususiyatlari, ularning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlili, omilli tahlil va uning natijasida mavjud ichki imkoniyatlarni aniqlash yo'llari ko'rsatib berilgan. Shu jumladan muallifning oldingi ishlarida [5] aksiyadorlik jamiyatlaridagi mol yetkazib beruvchilar oldidagi majburiyatlarni baholash, ularni schotlar rejasida aks ettirish, majburiyatlar ustidan nazoratni amalga oshirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, obligatsiyalar hisobi, majburiyatlarni baholash va ularni tahlili kabi masalalar yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada, ilmiy abstraksionalash, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, iqtisodiy-matematik qiyoslash va guruhlash kabi iqtisodiy tahlil va statistik usullardan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yurtimizda qimmatli qog'ozlar bozori muhim va dolzarbligi sababli ushbu masalaga keyingi yillarda alohida e'tibor berilmoqda. Qimmatli qog'ozlar bozori iqtisodiyotdagi bo'sh pul mablag'larini jamlash va uni investitsiya jarayonlariga yo'naltirishning muhim vositasidir. Bu boradagi islohotlarning dastlabki bosqichi sifatida joriy yil boshida Kapital bozorini rivojlantirish agentligi tuzildi. Davlat obligatsiyalari fond bozoriga qayta chiqarildi. Shu bois 2020–2025-yillarda fond bozorini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish rejalashtirilgan. Erkin muomiladagi jami qimmatli qog'ozlarning yalpi ichki mahsulotga nisbatini 2025-yil oxirigacha kamida 10-15 foizga yetkazish mo'ljallangan". [6]

Mamlakatimizda joriy yilda chiqarilgan davlat obligatsiyalari valyuta birjasi orqali faqatgina tijorat banklariga sotilgan. Fond bozori professional ishtirokchilari soni yuztaga ham bormaydi. Emitentlar bilan soniga bog'liqligini va uning rivojlanishini tahlil qilish lozim (1-jadval).



1-jadval. O'zbekiston Respublikasida fond bozori hajmining tahlili [7].

№	Yillar	Bitimlar soni	Bitimlar hajmi, mlrd so'm	Inflyatsiya %	Emitentlar soni
1.	2018	13 750	687,30	14,3	117
2.	2019	32 816	438,82	15,2	112
3.	2020	36 062	578,15	11,1	103
4.	2021	71 489	1 260,51	10,0	108
5.	2022	80 723	4 816,21	12,3	114
Jami 5 yillik	X	234 840	1 704,27	X	X

Ushbu 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, O'zbekiston Respublikasi fond bozori keyingi yillarda juda tez rivojlanmoqda. Ayniqsa fond bozori 2021–2022-yillarda juda tez rivojlanib, shu jumladan 2018-yili 687,3 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lib, 2018-yilda esa nisbatan 2019-yilda kamaygan, 2020-yilda esa 139,33 mlrd o'sgan. Bundan tashqari 2021-yili 2022-yilga nisbatan esa 3,82 baravarga yoki 3555,7 mlrd.so'mga oshganligini ko'rishimiz mumkin (2-jadval).

2-jadval. Viloyatlarning 2023-yilga fond bozori xajmi tahlili.

Hududlar	Emitentlar soni	Bitimlar soni	Qimmatli qog'ozlar soni	Bitimlar hajmi, so'm
Andijon viloyati	4	8 601	41 814 582	16 769 840 129,57
Buxoro viloyati	9	648	9 689 323	16 051 218 885,17
Toshkent shahri	47	34 984	36 066 662 551	2 658 061 671 456,47
Jizzax viloyati	1	301	34 658	126 710 383,05
Qashqadaryo viloyati	8	169	512 833	12 513 676 356,32
Navoiy viloyati	3	6 822	4 359 403	14 602 655 278,41
Namangan viloyati	4	1 245	135 944	4 037 097 570,22
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5	83	3 194 490	39 293 691 648,92
Samarqand viloyati	2	305	1 357 135	14 167 059 932,03
Sirdaryo viloyati	2	4	150 663	326 102 481,09
Toshkent viloyati	16	18 479	11 010 930	1 962 863 604 773,77
Farg'ona viloyati	10	9 062	10 429 576	60 999 925 563,36
Xorazm viloyati	3	20	5 408 094	16 394 164 342,02
Jami	114	80 723	36 154 760 182	4 816 207 418 800,40

Oxirgi yillarda O'zbekiston fond bozori barqaror o'sish ko'rsatkichlarini namoyon qilib, qimmatli qog'ozlarga mablag'larni samarali investitsiyalashning katta imkoniyatlarini ochib, mamlakat moliya tizimining tobora ahamiyatli qismiga aylanib bormoqda.

“Toshkent” RFB rasmiy birja listingiga 2023-yilda 21 aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari kiritilgan bo'lib, ular jumlasiga tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari, qurilish materiallari ishlab-chiqarish, agrosanoat kompleksi, energetika, metallurgiya va iqtisodiyotning boshqa sanoat tarmoqlariga mansub korxonalar kiradi. 2023-yil 31-may holatiga 106 ta emitentlarning 129,93 mlrd. so'mlik aksiya emitentlarning umumiy bozor kapitallashuviga erishilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliyaviy instrumentlar hisobi va auditini takomillashtirish uchun yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda quyidagi tadbirlarni amalga oshirishi lozim:

1. Bugungi kunda qimmatli qog'ozlar hisobi va auditing huquqiy asosini takomillashtirish tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. Bunga, xalqaro bozorlarda faoliyat yuritayotgan kompaniya, korxonalar va banklar o'rtasidagi o'zaro aloqa muomilalarining vujudga kelishi va qimmatli qog'ozlar bozorining

yanada rivojlanishi sabab bo'lmog'ida. O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq faoliyatini hisobga olish va audit tekshiruv jarayonida auditning xalqaro standartlari talablariga muvofiq ravishda o'tkazilishi iqtisodiyotini rivojlantirish uchun qaratilgan, qolaversa auditorlik faoliyati milliy standartlarini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish masalalari hali to'liq o'rganilib chiqilmagan deb o'ylaymiz.

2. O'zbekiston Respublikasida amaldagi qonunchilikka ko'ra, xo'jalik subyektlari tomonidan quyidagi qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish ruxsat etilgan. Buxgalteriya hisobining 21-sonli "Buxgalteriya hisobi schotlar rejasi" nomli milliy standartiga ko'ra, qimmatli qog'ozlar quyidagi schotlarda hisobga olish mo'ljallangan: 0610- "Qimmatli qog'ozlar"; 0620- "Sho'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar"; 0630- "Qarma xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar"; 0640- "Xorijiy kapital qatnashgan korxonalariga investitsiyalar"; 0690- "Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar".[8]

Lekin O'zbekiston Respublikasi "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida" gi Qonunga ko'ra, depozit sertifikat, korporativ obligatsiyalar, emissiyaviy qimmatli qog'ozlar kabi turlari to'g'risida ham to'xtalib o'tilgan. Demak, ushbu qimmatli qog'ozlarni xam hisobga olish zaruriyati paydo bo'ladi. Shu sababli bizning fikrimizcha, ularni alohida hisobga olish uchun 0610 schotda qo'shimcha quyidagi schotlarni ochish lozim deb o'ylaymiz.

0611- "Depozit sertifikat"; 0612- "Korporativ obligatsiyalar"; 0613- "Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar" nomli schotlarda ushbu qimmatli qog'ozlarni alohida yuritish va ularning turlari va emitentlarning nomlari bo'yicha analitik schotlar ochib yuritish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. www.nyse.com, www.nasdaq.com. TOP-10 мировых бирж. На основе информации международный биржа по статический база данных NYSE и NASDAQ.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.02.2020 yildagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son qarori, <https://www.lex.uz/docs/-4746047>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
4. Isroilov B.I. Aksiyadorlik jamiyatlarida buxgalteriya hisobi va tahlilini takomillashtirish. (Savdo aksiyadorlik jamiyatlari misolida). I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. T.:BMA, 1999. 23b.
5. Maxmudov S.Q. Aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlar hisobi va tahlilini takomillashtirish (Ip-yigiruv korxonalarini misolida). I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. T.:BMA, 2006. 22b.
6. Mirziyoev Sh. M. Fond bozorini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqi. 07.10.2019. //norma.uz.
7. https://www.uzse.uz/system/analytics/pdfs/000/000/153/original/2022_yil_bo'yicha_birjaviy_tahlil.pdf?1676883324
8. Alimov I.I. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari. Toshkent:2006. 216b.

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100